



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi



Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 430,5 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Qashqadaryo viloyati bo'yicha - jami	1 430,5
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2 369,7
Qurilish	1 729,8
Savdo	1 466,4
Tashish va saqlash	2 011,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	868,3
Axborot va aloqa	1 682,0
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 146,2
Ta'lim	1 161,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	894,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 163,6
Boshqa faoliyat turlari	1 306,8

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida **2237,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **156,4** %), Guzor tumanida **2126,8** ming so'mni (**148,7** %) va Qarshi shahrida **1616,0** ming so'mni (**113,0** %) tashkil etgan bo'lsa, Qarshi tumanida **1004,3** ming so'mni (**70,2** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-iyun, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **426,5** ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.